



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI MINISTRY OF JUSTICE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100000, Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 5-uy, tel.: (998 71) 207 04 43,
www.minjust.uz, el. pochta: info@adliya.uz, minjust@exat.uz

ISO 37001:2016 ISO 9001:2015 ISO 27001:2013

CERTIFIED ABMS-0290A CERTIFIED QMS-0479A CERTIFIED 209809/JU/0001

2023-yil 16-fevral 11/42-1/280-son

Vazirlik va idoralar,
davlat ishtirokidagi tashkilotlar
va xo'jalik birlashmalari
rahbarlariga
(ro'yxat bo'yicha)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son Farmonining 5-bandida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari hamda Hukumat vakolatlariga oid boshqa dolzarb masalalarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish tartibi belgilangan bo'lib, unga muvofiq:

- **normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va masalalar Hukumatga bevosita vazirlar va boshqa mustaqil ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari tomonidan belgilangan tartibda kiritiladi;**
- **davlat ishtirokidagi tashkilotlar va xo'jalik birlashmalari** tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va boshqa masalalar **tegishli sohada davlat siyosatini amalga oshirayotgan vazir yoki boshqa mustaqil ijro etuvchi hokimiyat organi rahbari** orqali kiritiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmoni bilan vazirliklar va alohida maqomga ega mustaqil respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining ro'yxati tasdiqlandi.

Shunga ko'ra, mazkur farmonlar ijrosini so'zsiz ta'minlash maqsadida Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimida (keyingi o'rnlarda – project.gov.uz) normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, kelishish, Adliya vazirligiga huquqiy ekspertiza uchun hamda Vazirlar Mahkamasiga ko'rib chiqish uchun kiritish faqat vazirliklar va alohida maqomga ega mustaqil respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Shu bois, joriy yilning 20-fevralidan **boshlab vazirliklar huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari** – qo'mitalar, agentliklar va inspeksiyalar hamda **davlat ishtirokidagi tashkilotlar va xo'jalik birlashmalari** tomonidan project.gov.uz da normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini vazirlik va idoralar bilan kelishish

imkoniyatlari to‘xtatilishi hamda ushbu tashkilotlar tomonidan Adliya vazirligiga kiritilgan loyihalar **huquqiy ekspertizadan o‘tkazilmasdan qaytarilishi ma’lum qilinadi.**

O‘z navbatida, 2023-yil 1-yanvargacha mustaqil faoliyat yuritgan respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari (vazirliklar, davlat qo‘mitalari, agentliklar va b.), davlat ishtirokidagi tashkilotlar va xo‘jalik birlashmalari tomonidan ishlab chiqilgan va idoraviy kelishuvdan o‘tkazilgan loyihalar Adliya vazirligiga tegishliligi bo‘yicha faqat vazirliklar va alohida maqomga ega mustaqil respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan (yangi ID raqam bilan) kiritiladi.

Bunda, aloqa xatida loyihaning idoraviy kelishuvdan o‘tkazilgandagi ID raqami to‘g‘risida ma’lumot keltiriladi hamda ushbu ma’lumot Adliya vazirligi tomonidan loyihani huquqiy ekspertizadan o‘tkazish jarayonida tekshiriladi.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish uchun kiritishni ushbu farmonlarda belgilangan tartiblarga riosa etgan holda amalga oshirilishini, shuningdek, yangi va qayta tashkil qilingan vazirliklar hamda alohida maqomga ega mustaqil respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni (“word” variantdagi rangli rasmiy blanka, moderator to‘g‘risidagi ma’lumot) **joriy yilning 17-fevraliga qadar** Adliya vazirligiga taqdim etilishini ta’minlashingiz so‘raladi.

Ilova: ____ v.

Vazir



A. Tashkulov

Ijr.: S. Nusratov

Tel.: (71) 207-04-99